



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

BOSHLANG'ICH SINFLARDA PAST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi

Qo'qon universiteti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni aniqlash, ularga individual yondashuv asosida ta'lim berish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada past o'zlashtirish sabablari, ularning psixologik-pedagogik xususiyatlari, hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali usul va vositalar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini oshirishda differensial yondashuv, rag'batlantirish, interfaol metodlar va oilaviy hamkorlik muhim omillar ekanligi aniqlangan. Maqolada nazariy tahlillar, ilg'or tajriba va amaliyotga oid materiallar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, individual yondashuv, turli metod, ko'zgzama, qoloq o'quvchilar, dars, o'qitish uslubi, faol o'quvchilar, zamonaviy texnologiyalar, individual yondashuv.

МЕТОДИКА РАБОТЫ СО СЛАБОУСПЕВАЮЩИМИ УЧАЩИМИСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Абдурахмонова Нигорахон Акрамали кизи

Кокандский университет, доцент

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы выявления слабоуспевающих учащихся в процессе начального образования, их обучения и развития на основе индивидуального подхода. Анализируются причины низкой успеваемости, психолого-педагогические особенности учащихся, а также эффективные методы и средства, направленные на преодоление данных трудностей. Результаты исследования показали, что важными факторами повышения уровня успеваемости учащихся начальных классов являются дифференцированный подход, мотивация, интерактивные методы и сотрудничество с семьей. Кроме того, на основе теоретического анализа, передового опыта и практических материалов разработаны методические рекомендации. Данные рекомендации способствуют повышению интереса учащихся к обучению, развитию самостоятельного мышления и повышению эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: мотивация, индивидуальный подход, различные методы, наглядность, слабоуспевающие учащиеся, урок, методика преподавания, активные учащиеся, современные технологии, индивидуальный подход.

METHODOLOGY FOR WORKING WITH LOW-ACHIEVING STUDENTS IN PRIMARY GRADES

Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi

Kokand University, Associate Professor

Abstract

This article discusses the identification of low-achieving students in primary education, as well as issues related to their teaching and development through an individualized approach. The study analyzes the causes of low academic achievement, the psychological and pedagogical characteristics of such students, and effective methods and tools aimed at overcoming these difficulties. The research findings indicate that differentiated instruction, motivation, interactive methods, and family cooperation are important factors in improving the academic performance of primary school students. In addition, methodological recommendations were developed based on theoretical analysis, advanced experience, and practical materials. These recommendations contribute to increasing students' interest in learning, developing independent thinking skills, and improving the effectiveness of the educational process.

Keywords: motivation, individual approach, various methods, visual aids, low-achieving students, lesson, teaching methodology, active students, modern technologies, individualized approach

Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida

olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini takomillashtirish pallasining ilk davri hisoblanganligi uchun katta e'tibor talab etadi. Ayni shu palladan bola o'zida "o'quvchi shaxsi"ni yaratadi, maktabga va ta'lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to'plashni boshlaydi. Bu esa zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala — bolaning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga jiddiy yondashuvni talab etadi. Shuningdek, Prezidentimiz 2023-yilda o'qituvchilar bilan uchrashuvda yana bir bor ta'limda e'tibordan chetda qolayotgan bolalarga alohida yondashuv zarurligini ta'kidlab: "Har bir bola – alohida olam. Past baho olayotgani yoki sust o'zlashtirayotgani – uning qobiliyati yo'qligidan emas. E'tibor, mehr va to'g'ri yondashuv bo'lsa – ana shunda o'zgarish bo'ladi", – degan edilar.

Adabiyotlar tahlili.

Boshlang'ich sinflarda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash muammosi ustida bir qator izlanishlar olib borilgan. Quyida ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz.

N.G'. Komilovning "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" kitobida "o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalar ularning "formulasi" shunday: "Biz bolalarimizni maktabga topshirdik. Ularni ana o'sha yerda tarbiyalaversin!" deyiladi. Ushbu guruhdagi oilalarni yana uchta kichik guruhlarga bo'lish mumkin:

1. yuqorida ko'rsatib o'tilgan uchinchi guruhga mansub belgilar mavjud bo'lgan kishilar (axloqsiz ota-onalar);
2. bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanib o'z jonini qiynashni istamaydigan ota-onalar;
3. o'z ishida band bo'lganligi hamda bola tarbiyasiga yetarli darajada e'tibor berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yolg'iz onalar ushbu kichik guruhdagi kishilar ko'proq uchraydi", haqida so'z boradi.

Orazbayeva Gulparchin Amankeldievnaning "Sinfda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash texnologiyasi" nomli maqolasida "sinf rahbari ishining asosiy qismi o'quvchilarni o'rganish, o'quvchilar bilim sifatini oshirish hamda ularning tartib-intizomini mustahkamlash, darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o'tkazishdir. O'quvchilarning ota-onalari bilan olib boriladigan ishlar ham sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biridir. O'quvchilar jamoasi — sinf rahbarining tayanchi. O'quvchilarni tarbiyalashda sinf jamoasidagi barcha o'quvchilarning bir-birlariga ta'sirlari katta ahamiyatga ega", degan fikr yuritilgan. Sinf rahbarining asosiy vazifasi o'quvchilarga ta'lim bilan birgalikda tarbiya ham berishdir. O'quvchilarni tarbiyalashda ota-ona bilan hamkorlikda ishlash kerak.

Xoliqova Zebiniso Rustamovnaning "Davomati va o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlash metodikasi" maqolasida quyidagicha yoritilgan: "dars vaqtida o'quvchi faoliyatiga qo'yilgan yuqori baho o'quvchilarda ruhiy tetiklik, shodlik, iftixor kabi hissiy kechinmalarni tug'diradi. Ammo o'quvchilar orasida fanlardan orqada qolish, o'zlashtirishi past baholanadiganlari ham uchrab turadi. Ushbu o'quvchilar bilan har bir sinf o'qituvchisi alohida ishlarni olib borishi va ulardagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, imkon qadar bunga yechim topishi zarur. Shunday ekan, ta'lim o'qituvchisi har tomonlama yetuk, o'tkir diplomat, o'z kasbining ustasi, intellektual salohiyatga ega shaxs bo'lishi shart".

O'quvchilar, ayniqsa bog'chadan endigina 1-sinfga chiqqan bola ko'proq o'yinga qiziqadi. Darslar ham qiziqarli o'yinlar tarzida o'tilsa, o'quvchining o'zlashtirishi yaxshi bo'ladi va darsdagi faolligi oshadi.

Nasiba Gadayevaning "Qoloq o'quvchi yoki past o'zlashtiruvchining sabablari va uning yechimlari" maqolasida "o'qituvchi xushmuomalali bo'lib, bu o'quvchini hech kimdan kam emasligini, unda ham iqtidor borligini takror va takror aytib, o'ziga ishonchini uyg'otishi shart. Bu toifa o'quvchilarga alohida mustaqil topshiriq berib, javobini bir ozdan so'ng so'ralsa, o'quvchida ishonch tuyg'usi paydo bo'la boshlaydi. Har bir darsda o'quvchiga e'tibor berilsa, o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi to'la kamol topadi. O'quvchi mavzuni noto'g'ri aytsa, savollarga javob bera olmasa, sinfdoshlari uning ustidan kulsa, bu o'quvchi darsda umuman gapirmaslikni, jim o'tirishni afzal ko'radi. Bu toifa o'quvchini gapirtirishdan avval o'qituvchi o'quvchilarga hech kimning javobi noto'g'ri emas, siz qo'rqmasdan fikringizni ochiq bayon qiling deb o'quvchini quvvatlab borishi yaxshi samara beradi", deb yozilgan.

O'quvchi o'zini erkin qo'yishi, fikrini qo'rqmasdan aytishga sharoit yaratib berilishi kerak. Bunda o'qituvchi: "Sizlar aytgan fikrni hurmat qilaman, xato bo'lsa ham aytinglar, noto'g'risini birgalikda to'g'irlaymiz", deyishi kerak.

Har bir o'qituvchining darsi zamonaviy texnologiyalar orqali o'tilishi kerak. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darsi, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari endi bog'chadan chiqqan, ularga darsdan ko'ra o'yin qiziqroq. Shuning uchun darsda turli o'yinlar, metodlar orqali dars o'tilsa, darsda ko'zlangan maqsadga yetiladi.

Chet el olimlaridan Lev Vygotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasida past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashda metodik yondashuvlarni belgilash muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan. Unga ko‘ra, har bir bola mustaqil bajara oladigan ish bilan kattalar yordamida bajara oladigan ishlar orasida “yaqin rivojlanish zonasi” mavjud va o‘qituvchining roli aynan shu oraliqda bolaning rivojiga yordam berishligi haqida so‘z borgan.

Angliyalik olim Susan Hallam esa o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga baho berishda faqatgina yakuniy natijani emas, balki jarayonni ham hisobga olish zarurligini ta’kidlagan. Uning fikricha, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ko‘p hollarda baholashdagi bosim tufayli o‘z bilimlarini to‘liq namoyish qila olmaydi. Shuning uchun baholash tizimi ham moslashtirilgan bo‘lishi kerak.

Psixologiya professori va Tufts universiteti San’at va fanlar maktabi dekani Robert J. Sternberg “Intelлектning uch komponenti” nazariyasida quyidagi fikrni ilgari surgan. U o‘zining tadqiqotlarida ko‘plab o‘quvchilar an’anaviy baholash tizimi doirasida “past o‘zlashtiruvchi” deb baholansa-da, ular ijodiy yoki amaliy intellekt bo‘yicha yuqori salohiyatga ega bo‘lishi mumkinligi haqida so‘z yuritgan. U shunday ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishni taklif etadiki, bunda har bir o‘quvchining kuchli tomonlari aniqlanib, ular asosida individual yondashuv qo‘llash kerak deb hisoblaydi.

METODOLOGIYA

Boshlang‘ich sinflarda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashga doir dolzarb masalalar nazariy va amaliy jihatlaridan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida quyidagi usul va metodlar amalga oshirildi. Bular: anketa, so‘rovnoma, rolga kirish orqali o‘rganish, suhbat, “rolli taqsimot dasturi” (RTD) metodlari.

Anketa-so‘rovnoma metodi. Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani 14–15-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 25 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari respondent sifatida tanlab olindi va past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash mavzusida quyidagi savollar berildi:

1 Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun qanday usullarni qo‘llaysiz?

- 1 Sizningcha, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashda eng katta muammo nimada?
- 2 Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar qaysi fanlarda o‘zlashtirish darajasi pastroq?
- 3 Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan individual ishlashga haftasiga qancha vaqt ajratasiz?
- 4 Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning o‘zlashtira olmasligiga nima sabab deb o‘ylaysiz?
- 5 Ularga beriladigan topshiriqlarni qanday qilib moslashtirasiz?
- 6 Ota-onalar bilan bu borada qanday hamkorlik qilasiz?
- 7 Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan samarali ishlash uchun qanday qo‘shimcha yordam

kerak?

Suhbat metodi. Ushbu metod O‘zbekiston tumani 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 1-sinf past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarida olib borildi. Bu o‘quvchilar asosan matematika darsini o‘zlashtirishda orqada qolayotgani aniqlandi va ularga quyidagi savollar berildi.

1. Darsdan keyin mustaqil ishlash odatangiz bormi?
2. Uyga vazifalaringizga ota-onangiz yordam beradimi?
3. Darsda berilgan topshiriqlarni qay darajada tushunasiz?
4. Agar darsda mavzuni tushunmasangiz nima qilasiz?
5. Darsdan oldin o‘zingizni qanday his qilasiz?

NATIJALAR

Biz tadqiqotni amalga oshirishda pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, test metodlarini olib bordik.

O‘zbekiston tumani 14–15-umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilari doirasida anketa-so‘rovnoma metodini o‘tkazganimizda 25 nafar o‘qituvchi ishtirok etdi. Quyida natijalarni ko‘rishingiz mumkin.

1-diagramma. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun qanday usullar qo‘llaysiz? Respondentlar soni — 25 ta.

- a) o‘yin va interaktiv faoliyatlar – 28%
- b) real hayotdan misollar keltirish – 40%
- c) o‘quvchilarning qiziqishlariga moslashtirish – 32%

2-diagramma. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashda eng katta muammo. Respondentlar soni — 25 ta.

- a) o‘quvchilarning motivatsiyasi pastligi – 48%

b) ota-onalarning kamroq ishtiroki – 48%

c) resurslarning yetishmasligi – 4%

3-diagramma. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar qaysi fanlarda o'zlashtirish darajasi pastroq?

Respondentlar soni — 25 ta.

a) Ona tili – 12%

b) Matematika – 68%

c) O'qish – 16%

d) Tabiiy fanlar – 4%

4-diagramma. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashga haftasiga qancha vaqt ajratasiz?

Respondentlar soni — 25 ta.

a) 0–1 soat – 4%

b) 1–2 soat – 72%

c) 3 soatdan ko'proq – 24%

5-diagramma. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'zlashtira olmasligiga nima sabab deb o'ylaysiz? Respondentlar soni — 25 ta.

a) Oilaviy muammolar – 8%

b) Ijtimoiy-psixologik holati – 16%

c) Til yoki nutq bilan bog'liq muammolar – 16%

d) Darslik yoki metodik materiallar qiyinligi – 32%

e) Diqqatni jamlay olmaslik – 28%

6-diagramma. Ota-onalar bilan bu borada qanday hamkorlik qilasiz? Respondentlar soni — 25 ta.

a) Reja asosida uchrashuvlar o'tkazish – 0%

b) Telefon orqali maslahat berish – 64%

c) Ota-onalar uchun seminarlar tashkil etish – 36%

7-diagramma. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan samarali ishlash uchun qanday qo'shimcha yordam kerak? Respondentlar soni — 25 ta.

a) Qo'shimcha darslik yoki repetitorlik – 0%

b) Psixologik yordam – 32%

c) Ota-onalar bilan faol hamkorlik – 44%

d) Maxsus metodik qo'llanma – 24%

8-diagramma. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga topshiriqlarni qanday qilib moslashtirasiz? Respondentlar soni — 25 ta.

a) Soddalashtirish – 32%

b) Qo'shimcha ko'makchi materiallar taqdim etish – 56%

c) Vaqtni ko'paytirish – 12%

O'zbekiston tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinf past o'zlashtiruvchi o'quvchilari bilan olib borilgan suhbat metodi natijasi.

9-diagramma.

Bunda 1-sinf o'quvchilari Oybek, Shahrizoda, Iqboljon, Azizbeklar 3 oy davomida kuzatildi. Yanvar oyida o'zlashtirish darajalari Oybek – 39,3%, Shahrizoda – 28,9%, Iqboljon – 35,7%, Azizbek – 24% ni tashkil etdi. Fevral oyida Oybek – 56%, Shahrizoda – 45%, Iqboljon – 49,9%, Azizbek – 41% bo'ldi. Mart oyida Oybek – 75,7%, Shahrizoda – 69,9%, Iqboljon – 71%, Azizbek – 66% natijani ko'rsatdi. Bundan ko'rinib turibdiki, yanvar oyidagi o'zlashtirish darajasi bilan mart oyidagi o'zlashtirish darajasi o'rtasidagi farq suhbat metodining samarali bo'lganini ko'rsatadi.

1 oy davomida olib borilgan pedagogik kuzatish natijasida past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning faolligi oshdi va darsga bo'lgan qiziqishlari kuchaydi.

MUHOKAMA

Boshlang'ich sinflarda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqotchi Susan Hallam o'z tadqiqotlarida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga baho berishda faqatgina yakuniy natijani emas, balki jarayonni ham hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ko'p hollarda baholashdagi bosim tufayli o'z bilimlarini to'liq namoyish qila olmaydi. Har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi har xil: kimdir eshitganini tushunadi, kimdir esa ko'rganini. Shuning uchun baholash tizimi ham moslashtirilgan bo'lishi kerak.

V.V. Davydovning “rivojlantiruvchi ta’lim” konsepsiyasida past o’zlashtiruvchi o’quvchilarga nisbatan oddiylashtirish emas, balki ular uchun bilimlarni tahliliy fikrlash orqali o’rgatish lozimligi ta’kidlanadi. Unga ko’ra, past o’zlashtirish sababini bola qobiliyatida emas, balki noto’g’ri tashkil etilgan o’quv faoliyatida izlash kerak. Bu yondashuv past o’zlashtiruvchilarni “zaif” emas, balki imkoniyatlari to’liq ochilmagan shaxs sifatida ko’rishga undaydi. Bu fikr to’g’ri, har bir o’quvchida qobiliyat bo’ladi, uni o’qituvchi ko’ra bilishi kerak.

XULOSA. Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda past o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan ishlashning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o’rganildi. Tahlillar shuni ko’rsatdiki, past o’zlashtiruvchilarning asosiy muammolari kognitiv, psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog’liq bo’lib, ularga individual yondashuv va tizimli pedagogik yordam zarur. Ilmiy adabiyotlar va tajriba asosida aniqlanishicha, past o’zlashtiruvchilar bilan samarali ishlash uchun quyidagi yondashuvlar muhim: differensial ta’lim metodlari, psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash, o’yin va interfaol metodlardan foydalanish, ota-onalar bilan hamkorlikni yo’lga qo’yish. Tajriba-sinov ishlarida past o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan maqsadli ishlash ularning bilim darajasida ijobiy o’zgarishlarga olib kelgani aniqlandi. Ular darslarda faolroq ishtirok eta boshlashdi, mustaqil fikrlash, topshiriqlarni bajarish ko’nikmalari shakllandi. Bu esa tanlangan metod va vositalarning samaradorligini isbotlaydi. Shunday qilib, boshlang’ich ta’lim bosqichida past o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan ishlash nafaqat ularning bilim darajasini oshirish, balki ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda ham muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Komilova N.G’. Xulqi og’ishgan bolalar. — 139 b.
2. Abduraxmonova N. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag’batlantirish tizimini takomillashtirish // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. — 2025. — Vol. 3. — № 9.
3. Abduraxmonova N. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati // Science and Innovation. — 2022. — Vol. 1. — № B8. — B. 2114–2121.
4. Qizi K.G.N. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida texnologik kompetensiyalarini shakllantirishning ahamiyati // Kasb-hunar ta’limi. — B. 127.
5. Abduraxmonova N.A. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining ijodiy faolligini oshirishda pedagogik ko’nikmalarning roli // Inter Education & Global Study. — 2025. — Vol. 1. — № 1. — B. 15–21.
6. Nigoraxon A. Ijodiy faoliyatini takomillashtirishda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining individual-shaxsiy sifatlati // University Research Base. — 2024. — B. 55–58.
7. Local PDF file (file:///C:/Users/User.AD.008/Downloads/+30.pdf).
8. Local PDF file (file:///C:/Users/User.AD.008/Downloads/Xoliqova+Zebiniso+Rustamovna.pdf).
9. Local PDF file (file:///C:/Users/User.AD.008/Downloads/105_108+Qoloq+O’quvchi+Yoki+Past+O’zlashtiruvchining+Sabablari%20(1).pdf).